

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XAYDAROV AXTAM AMONOVICH

***APIS MELLIFERA* JONSIZ ASALARIDAN OLINGAN XITIZAN VA
KARBOKSIMETILXITIZAN ASOSIDA IPAK VA ARALASH TOLALI
MATOLARNI PARDOZLASH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro-2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Haydarov Ahtam Amonovich

APIS MELLIFERA jonsiz asalaridan olingan xitozan va karboksimetilxitozan asosida ipak va aralash tolali matolarni pardoqlash texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Хайдаров Ахтам Амонович

Совершенствование технологии колорирования шелковых и смесовых тканей с применением хитозана *APIS MELLIFERA* и карбоксиметилхитозана 29

Khaydarov Akhtam Amonovich

Improving the technology for coloring silk and mixed fabrics using *APIS MELLIFERA* chitosan and carboxymethyl chitosan 55

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XAYDAROV AXTAM AMONOVICH

***APIS MELLIFERA* JONSIZ ASALARIDAN OLINGAN XITUZAN VA
KARBOKSIMETILXITUZAN ASOSIDA IPAK VA ARALASH TOLALI
MATOLARNI PARDOZLASH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro-2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/T659. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saxifasi www.tktiti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Beknazarov Hasan Soyibnazarovich
texnika fanlari doktori, professor

Abed Nodira Soyibjonovna
texnika fanlari doktori, professor

Mahkamov Muzaffar Abdug'apponovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 11 » _dekabr_ soat _14:00_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Shurobozor. Tel.: (+99895)144-67-83). E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 2024/37 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Shurobozor. Tel.: (+99895)144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 29 » _noyabr_ kuni tarqatildi.

(2024 yil « 29 » _noyabr_ dagi № 2024/37 raqamli reestr bayonnomasi).



A.T. Djalilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
k.f.d., prof., akademik

Sh.N. Qiyomov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
t.f.d., k.i.x.

H.S. Beknazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda, dunyoda plyonka hosil qiluvchi, quyuqlashtiruvchi, antibakterial, gigiyenik, sorbsion xususiyatlarga ega, past toksiklikka va biodegradatsiya qobiliyatiga ega bo'lgan xitin va xitozanni olishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Xitozan makromolekulasining o'ziga xos tuzilishi va musbat zaryadining mavjudligi undan foydalanish sohasini kengaytiradi. Shunga muvofiq, xitin, xitozan va ularning hosilalari asosida to'qimachilik sanoati uchun polimerlarni sintez qilish va qayta ishlashning ilmiy-texnologik tamoyillarini hamda organizmlar uchun xavfsiz, bioparchalanuvchi yangi yuqori molekulari birikmalar va ular asosidagi to'qimachilik materiallarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon to'qimachilik sanoatida mahsulotlar sifatini oshirish bilan bir vaqtda energiya sarfini kamaytirish, yangi va aralash matolarni faol va kislotali bo'yoqlar bilan organik intensivatorlardan foydalangan holda bo'yash jarayonini takomillashtirish бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Bu borada, intensivator sifatida biopolimer - xitozanni qo'llagan holda to'qimachilik materiallarini bo'yash, gul bosish va yakuniy pardoqlashning yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlariga ta'sir etuvchi muhim omillarni aniqlash, ularning oqilona ko'rsatkichlarini ilmiy asoslash, xitozan ishtirokida ipak va aralash matolarni suvda eriydigan bo'yoqlar bilan pardoqlash jarayonini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada tayyor to'qimachilik materiallarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mahalliy xom ashyodan foydalangan holda tabiiy tolali matolarni bo'yash jarayonini jadallashtirish yo'llari bo'yicha katta ishlar olib borilib, muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish"¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni bajarishda tabiiy tolalarni bo'yashning ekologik xavfsiz, resurs tejaydigan texnologiyasini ishlab chiqish, to'qimachilik tolalari va reagentlarning kimyoviy o'zaro ta'siriga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi PF-3246-son "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2016-yil 26-dekabrda PF-2698-son "2017-2019-yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish istiqbolli loyihalarini yanada amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2016-yil 15-iyundagi PQ-2547-son "2016-2020-yillarda mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida tayyor eksportga yo'naltirilgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

To'qimachilik sanoati materiallariga xitin va xitozan asosidagi bioparchalanuvchi polimerlar bilan ishlov berish va ularni amaliyotga joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Chonnam milliy universiteti (Janubiy Koreya), Lowell Massachusetts korporatsiyasi (AQSH), Duzche universiteti Sog'liq va atrof-muhit texnologiyalari bo'yicha ixtisoslashuv bo'limi (Turkiya), Vengriya Fanlar akademiyasi Kimyoviy tadqiqotlar markazi (Vengriya), Xitoy Fanlar akademiyasi Ningbo materiallar texnologiyasi va muhandisligi institutida (Xitoy) olib borilmoqda.

To'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda xitozan asosidagi polimerlardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy yutuqlarga erishilgan, jumladan: to'qimachilik matolari uchun xitin asosidagi quyushtiruvchilari antibakterial xususiyatlarining statistik ta'siri tahlil qilingan (RWTH Aachen universiteti, Germaniya); xitozan polimerlarini matolarga rang berishda quyushtiruvchi va ohor tayyorlashda bog'lovchi modda sifatida qo'llash usullari ishlab chiqilgan (Istanbul texnika universiteti, Turkiya); xitozan asosida bo'yoqlar va og'ir metallardan oqova suvlarni tozalashda ishlatiladigan sorbentlar olingan (Istanbul universiteti Turkiya); xitozan asosidagi quyushtiruvchilar to'qimachilik mahsulotlari ranglarining yorug'likka chidamliligini oshirishi aniqlangan (Seul milliy fan va texnologiya universiteti, Koreya); bo'yoqlarning rang intensivligini oshiruvchi biopolimerlarning ishlab chiqarishda xitinni o'zak polimer sifatida qo'llash usullari aniqlangan (Ningbo Materiallar texnologiyasi va mashinasozlik instituti, Xitoy).

Dunyoda qoplama hosil qiluvchi, quyushtiruvchi, antibakterial, gigiyenik, sorbsion, kam zaharli, bioparchalanuvchan kabi bir qator noyob xususiyatlarga ega bo'lgan xitin va xitozan sintezi bo'yicha qator ustivor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan: xitin va xitozan hosilalari asosida ko'p funksiyali ingrediyentlar sintez qilish, ular asosida xitozan hosilalarini olishning resurs tejankor texnologiyasini takomillashtirish, shuningdek, sintez qilingan xitin va xitozan asosidagi polimerlarning ishlatilish sohasini aniqlash, oldindan boshqariladigan fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega xitin va xitozan asosida plyonka hosil qiluvchi biopolimerlar sintez qilish, kimyoviy va foto-termobarqarorlik, kabi texnik xususiyatlarni mujassamlashtirgan xitozan asosidagi polimerlar olish texnologiyasini ishlab chiqish.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://belstu.by/>; <https://www.mirea.ru/>; <https://rguk.ru/>; <https://www.isuct.ru/>; <https://technolog.edu.ru/>; <https://www.kstu.ru/>; <https://www.bashedu.ru/ru/>; <https://manara.edu.sy/>; <http://english.nimte.cas.cn/>; <http://biochemphysics.ru/>; <https://mta.hu/>; <https://www.isc-ras.ru/>; <https://tishreen.edu.sy/en/>; va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda yangi va aralash matolarni organik intensivatorlardan foydalangan holda faol va kislotali bo'yoqlar bilan bo'yash jarayonini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan bakteritsid xususiyatlariga ega bo'lgan yangi avlod biodegradatsiyalanuvchi polimerlarni ishlab chiqish hamda ularning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar krab xitozanidan foydalanib, ipak va aralash to'qimachilik matolarini bo'yash jarayonini jadallashtirish va bo'yalgan matolarning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bu yo'nalishda A.A.Sayed (Saudiya Arabistoni unibersiteti), M.R.Julia (Ispaniya universiteti) Junni xitozan bilan ishlov berib xossalarini o'rganishgan bunda tolalarning bir-biriga yopishishi va kirishishga chidamliligi yaxshilanishi kuzatilgan, S.M.Hudson (AQSh, Shimoliy Karolina universiteti) xitozan vositalarining antiseptiklik xususiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan, C.C.Wang (Xitoy) oqova suvlarni tozalashda xitozandan foydalanib sorbentlar olgan, B.N.Borndyopahyay, G.N.Sheth (AQSh) bo'yash jarayonida xitin va xitozan asosidagi polimerlarni qo'llanilishini o'rganmoqdalar, V.P.Krichevskiy, V.V.Safonov, V.P.Varlamov (Rossiya) olimlar xitozanni boshqa tabiiy polimerlar (kraxmal, jelatin, alginatlar) bilan birgalikda to'qimachilik sohasida qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda, N.A.Vaxitova, I.I.Klochkova, K.G.Skryabin, I.I.Manyukova, N.A.Nesterova (Rossiya) kabi ko'plab xorijiy olimlar tomonidan xitozan asosidagi polimerlarning toqimachilik sanoatida bo'yash jarayonida qo'llanilishi o'rganilmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik mahsulotlarini pardoqlash sohasida bo'yash, ipak va aralash matolarga suvda eriydigan bo'yoqlar bilan yakuniy ishlov berish bo'yicha X.A. Alimova, M.Z. Abdukarimova, D.B. Xudayberdiyeva, I.A. Nabiyeva, G.A. Ixtiyarova, M. Mirzaxmedova va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Shuningdek, turli xom ashyolardan xitin, xitozan, karboksimetilxitozan sintezini o'rganish bo'yicha, jumladan tut ipak qurtining g'umbaklaridan hamda jonsiz asalaridan xitozan va uning hosilalarini olish, ularning qo'llanilish sohalarini tadqiq etish bo'yicha O'zR FA akademigi S.Sh.Rashidova, G.A.Ixtiyarova, N.R.Vaxidova, M.Kadirxanovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Xitin va xitozan hosilalari asosida ko'p funksiyali ingredientlarning yangi avlodini ishlab chiqish imkoniyatlarini o'rganish, xitozan hosilalarini olishning resurs tejankor texnologiyasini hamda *Apis Mellifera* xitozanini qo'llagan holda ipak va aralash matolarni suvda eriydigan bo'yoqlar bilan pardoqlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bo'g'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining F3 2019081633 raqamli "Mahalliy *Apis Mellifera* jonsiz asalarilaridan xitin va xitozan sintezi hamda ular asosida biologik parchalanuvchi polimer plyonkalar olish" (2020-2022) mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoati oqava suvlarini tozalash uchun organosorbentlar olish va ipak va paxta-ipak matolarini pardoqlash texnologiyasini

takomillashtirish uchun quyushtiruvchilar tarkibini yaratish maqsadida mahalliy xitozan va uning hosilalarini sintez qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jonsiz asalari *Apis Mellifera* dan kriogen usulda xitozan olish jarayonining asosiy qonuniyatlarini o'rganish hamda xitozan va karboksimetilxitozan makromolekulyar zanjirlarining suvli eritmalarida sintezi kinetikasini aniqlash;

jonsiz asalaridan olingan xitozan va karboksimetilxitozanning fizik-kimyoviy, reologik, antibakterial va gigiyenik xossalari hamda tuzilish xususiyatlarini tadqiq etish;

olingan karboksimetilxitozan asosida quyushtiruvchi ishlab chiqish va karboksimetilxitozan konsentratsiyasining faol bo'yoqlarning tolada kovalent bog'lanish miqdoriga intensivator sifatida ta'sirini aniqlash;

jonsiz asalaridan sintez qilingan xitozan va karboksimetilxitozan asosida ipak va paxta-ipak matolarini faol va kislotali bo'yoqlar bilan bo'yash jarayoni texnologiyasini takomillashtirish;

to'qimachilik sanoati bo'yash sexining oqava suvlarini tozalash uchun mahalliy bentonit va *Apis Mellifera* xitozani asosida organosorbent olish texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida jonsiz asalaridan ajratib olingan xitozan, uzzitan, karboksimetilxitozan, ipak, paxta-ipak aralash mato, Turkiya va Xitoyda ishlab chiqarilayotgan faol va kislotali bo'yoqlar, Krantau bentoniti hamda organosorbent olingan.

Tadqiqotning predmeti sintezlangan xitozan va karboksimetilxitozandan bo'yash va gul bosish jarayonida intensivator sifatida foydalanib, intensivator konsentratsiyasining bo'yoq mustahkamlanish darajasiga ta'sirini o'rganish, paxta-ipak va ipak matolarining koloristik sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, organosorbentning adsorbsiyalash xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida IQ-furje spektroskopiyasi, YaMR spektroskopiyasi, UB spektroskopiyasi, rentgenfaza tahlili, skanerlash elektron mikroskopiyasi (SEM), fizik-mexanik xossalarni aniqlashning standart usullari, shuningdek, bo'yalgan matolarning koloristik sifat ko'rsatkichlarini aniqlash kabi zamonaviy fizik-kimyoviy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy jonsiz asalari *Apis Mellifera* dan kriogen usulda xitozan olingan va uning asosida karboksimetilxitozan sintez qilingan;

Apis Mellifera jonsiz asalaridan O-karboksimetilxitozan olish jarayonining maqbul sharoitlari ishlab chiqilgan va Hyper chem dasturi yordamida molekulyar xususiyatlari ilmiy asoslangan, shuningdek ular asosida bo'yalgan matoning koloristik xususiyatlari aniqlangan;

sintez qilingan xitozan va karboksimetilxitozanning fizik-kimyoviy, reologik va antibakterial xususiyatlari aniqlangan va ulardan ipak va aralash matolarni bo'yash uchun intensivatorlar sifatida foydalanishligi ilmiy asoslangan;

tola - karboksimetilxitozan - bo'yovchi modda tizimidagi bog'lanishlarning tabiati va ta'sir qilishning kimyoviy mexanizmi ilmiy asoslangan hamda faol bo'yovchi moddaning tolaga kovalent birikishining darajasi va miqdoriga xitozan intensivator konsentratsiyasining ta'siri aniqlangan;

xitozan va uzxitan intensivatoridan foydalanib, ipak va paxta-ipak matolarini bo'yash hamda ularga gul bosish uchun kompozitsiya tarkibi ishlab chiqilgan;

bo'yash jarayonidagi bo'yoqlarning sifat ko'rsatkichini oshiruvchi ipak va paxta-ipak matolarini faol va kislotali bo'yoqlar bilan bo'yash jarayonida jonsiz asalarilardan olingan xitozan va karboksimetilxitozanni qo'llash texnologiyasi takomillashtirilgan hamda bo'yash jarayonlarini o'tkazish uchun maqbul sharoitlar aniqlangan;

to'qimachilik sanoati bo'yash sexlari oqava suvlarini tozalash uchun mahalliy Krantau bentoniti bilan *Apis Mellifera* xitozani asosida sorbentlar olish usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Apis Mellifera jonsiz asalarilardan xitin va xitozan olish ular asosida karboksimetilxitozan sintez qilish usullari ishlab chiqilgan;

to'qimachilik mahsulotlarining bakteritsid xususiyatlarini yaxshilashda *Apis Mellifera* xitozani va karboksimetilxitozan ishtirokidagi intensivator asosida aralash matolarni bo'yash texnologiyasi taklif etilgan va texnologik sharoit ishlab chiqilgan;

sintez qilingan xitozan va karboksimetilxitozan matolarni bo'yash jarayonida qo'llanilganda tayyor matolarning yuqori rangdorlik hamda fizik-mexanik ko'rsatkichlariga erishilishi aniqlangan;

mahalliy Krantau bentoniti bilan *Apis Mellifera* xitozani asosida to'qimachilik sanoati bo'yash sexlari oqava suvlarini tozalash uchun sorbentlar olishning texnologik sxemasi, texnologik tavsifi va moddiy balansi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan adsorbentlarning to'qimachilik sanoati bo'yash sexlari oqava suvlarini adsorbsion tozalash samaradorligi aniqlahgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi fizik-kimyoviy (IK-spektroskopiya, YaMR-spektroskopiya, UF-spektroskopiya, optik mikroskopiya) va fizik-mexanik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi hamda xitozan va karboksimetilxitozan polimerlari asosida aralash matolarni bo'yash texnologik jarayoni shuningdek to'qimachilik sanoati bo'yash sexlari oqava suvlarini tozalash uchun sorbentlar olish texnologiyalarining ishlab chiqilganligi va ularning sanoat-tajriba amaliyotlarida sinovdan o'tkazilganligi va ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy xomashyo *Apis Mellifera* jonsiz asalarilardan sintez qilingan xitozan intensivator ishtirokida faol va kislotali bo'yoqlar bilan ipak va paxta-ipak matolarini bo'yashning va ular asosida oldindan belgilangan fizik-mexanik va fizik-kimyoviy, bakteriotsid xususiyatlarga ega matolarni olishning, hamda mahalliy Krantau bentoniti bilan *Apis Mellifera* xitozani asosida adsorbentlar olishning ilmiy asoslangan usullarini aniqlanganligi, shuningdek ilmiy-tadqiqot natijalarini birlashtirish hisobiga takomillashtirilgan texnologiyalarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xitozan va karboksimetilxitozanni ipak va paxta-ipak matolarni pardoqlash jarayonida intensivator hamda qyyuqlashtiruvchi sifatida joriy etish natijasida bo'yoqlardan unumli foydalanishini

oshirishi va kimyoviy reagentlar (bo'yoq, elektrolitlar) sarfini kamaytirishi hamda mahalliy xomashyolar (xitozan va bentonit) asosida olingan sorbentlardan to'qimachilik sanoati bo'yash sexi oqava suvlarini tozalashda qo'llanilishi bilan, shuningdek to'qimachilik sanoati bo'yash va oqava suvlarini tozalash uchun sorbentlar olish texnologik jarayonlarining ishlab chiqilgan texnologik sxemasiga muvofiq, sanoat miqyosida olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jonsiz asalarilardan olingan xitozan, karboksimetilxitozan va uzxitanni ipak va paxta-ipak matolarni bo'yash va to'qimachilik sanoati oqava suvlarini tozalash jarayonlarida qo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

olingan karboksimetilxitozan va "Uzxitan", faol va kislotali bo'yoqlar bilan paxta-ipak va ipak matolarni davriy va yarim uzluksiz bo'yash jarayonida "Ever White Group" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2023 yil 7 sentyabrdagi 04/13-2579-son ma'lumotnomasi). Natijada, karboksimetilxitozan va uzxitanni bo'yash eritmalariga kiritish matolarning rang intensivligini 40% ga oshirish imkonini bergan;

olingan xitozan va karboksimetilxitozandan ipakni bo'yash va paxta-ipak matolarni gul bosish jarayonida intensivlik sifatida qo'llanilish texnologiyasi "Buxoro Cotton Textile" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2023 yil 7 sentyabrdagi 04/13-2579-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'yalgan va gul bosilgan matolarning koloristik xossalari va fizik-mexanik ko'rsatkichlari yaxshilanishi bilan bir qatorda elektrolitlar, qimmatbaho bo'yovchi moddalar sarfi va pardoqlash jarayonining haroratini kamayishiga imkon bergan;

mahalliy Krantau bentonitini *Apis Mellifera* xitozani bilan modifikatsiyalab olingan organosorbentlar bo'yash sexi oqava suvlarini tozalashda "Buxoro Cotton Textile" mas'uliyati cheklangan jamiyatida amaliyotga joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2023 yil 7 sentyabrdagi 04/13-2579-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan organosorbentlarning qo'llanilishi bo'yoq sexi oqava suvlarini sorbsion tozalash samaradorligining ortishi bilan bir qatorda, ishlatilgan suvni jarayonga qaytqirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ish natijalari 12 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilinib muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha jami 25 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan 5 tasi Doktorlik (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xalqaro jurnallarda (shundan bittasi Scopus ma'lumotlar bazasiga kiritilgan) va 8 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 193 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangilik va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, olingan natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish natijalari keltirilib, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aminopolisaxaridlar asosidagi biologik parchalanadigan polimerlar, ularning olinishi, xossalari va to'qimachilik materiallarini bo'yash texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy olimlarning turli maqsadlar uchun mo'ljallangan antibakterial materiallarni olishga qaratilgan keng qamrovli adabiyotlari tahlili keltirilgan, ko'plab tadqiqot ishlari mavjud bo'lishiga qaramay, bir qator muammolar haligacha yechimsiz qolmoqda, xususan: tabiiy tolalardan tayyorlangan to'qimachilik materiallarini pardoqlash uchun xitozan va karboksimetilxitozan asosidagi antibakterial mahalliy preparatlarning barqaror shakllari va ularni to'qimachilik materiallarini qayta ishlashda qo'llash texnologiyalari ishlab chiqilmagan. Xitozan o'zining biologik faolligi tufayli to'qimachilik materiallariga fungitsidlik va bakteriostatik xususiyatlarni beradi, bu bilan mahsulotlarning barqarorligini oshiradi.

"Tadqiqot obyektlari va jonsiz *Apis Mellifera* asalaridan olingan xitozan xossalari o'rganish usullari" deb nomlangan ikkinchi bobda ushbu dissertatsiya doirasida tajribalar o'tkazishda foydalaniladigan tadqiqot usullari va suyuq azot muhitda xitozan olish va xossalari tadqiq qilish usullari keltirilgan. Karboksimetillangan xitozan hosilalarini olish usullari va namunalarning muhim xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek tadqiqot usullari bayon etilgan, xususan fizik-kimyoviy va reologik usullar: viskozimetriya, yuqori tezlikda sedimentatsiya, konduktometriya, IQ-, YMR-, UF- spektroskopiyasi, rentgenografiya, optik mikroskopiya va xitozan va uning hosilalarining antibakterial xossalari aniqlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jonsiz asalari *Apis Melliferadan* xitozan va uning hosilalarini sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish”** deb nomlanib, unda mahalliy jonsiz asalaridan xitozan va uning hosilasi karboksimetilxitozan sintezi natijalari keltirilgan. Xitin va xitozan olish uchun mahalliy *Apis Mellifera* jonsiz asalarilari qo'llanilgan. Jonsiz asalarilar bu- qishda o'lib, uyaning tubiga tushib qolgan asalarilardir. Yozda asalarilarning o'limi qishga qaraganda sezilarli darajada ko'p bo'ladi, lekin ular odatda uyadan tashqarida nobud bo'lishgani uchun kamroq seziladi. Ob-havoga bog'liq holda qishlashdan keyin bahorda asalarilar oilasi 35-45% ga yangilanadi.

Xitozan olishda maydalash jarayonida suyuq azot ishlatildi, keyin esa deminerallashtirish va deproteinlash amalga oshirildi. Xitozan xitinni dezatsetillash orqali olinadi. Dezatsetillash reaksiyasining asosiy texnologik ko'rsatkichlari harorat, ishqor miqdori va jarayon davomiyligi hisoblanadi. Biz xitozan sintezini

quyidagi parametrlarni o'zgartirib amalga oshirdik: ishqor konsentratsiyasini 30, 40, 50% foizgacha ko'tardik va reaksiya davomiyligini 1-2-4-6-7-8 soatgacha uzaytirdik. Xitozan namunalari 80-100-120-140°C haroratda ajratib oldik. Xitinning dezatsetillanishga yuqori bardoshliligi karbonil guruhi va amid guruhi azoti o'rtasida vodorod bog'lari mavjudligini ko'rsatadi. Harorat ko'tarilishi bilan dezatsetillanish darajasi ham ortadi, molekulyar massa esa pasayadi (1-jadval).

Dezatsetillash reaksiyasi ishqor bilan ishlov berishning birinchi soatida tez davom etadi, bunda 100°C haroratda 50% NaOH bilan jarayon atsetil guruhining taxminan 70% ini uzadi, so'ngra reaksiya sekinlashadi, kerakli natijaga erishish uchun eritmada ortiqcha miqdorda NaOH talab qilinadi. Xitinni dezatsetillashning standart usuli mavjud emas, lekin 140°C gacha bo'lgan haroratda yuqori konsentratsiyali NaOH eritmasi (35-50%) qo'llaniladi.

1-jadval

Jonsiz asalaridan va pilla g'umbagidan olingan xitozanning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari


Nomlanishi	namligi, %	qovushqoqlik, Pa*s 10 ⁻³	Ummiy azot miqdori, %	Molekulyar massa, kDa
Jonsiz asalaridan oddiy usulda olingan xitozan	10,17	3,4	8,27	240
Jonsiz asalaridan kriogen usulda olingan xitozan	10,5	4,1	8,55	192
Pilla g'umbagidan olingan xitozan	9,67	2,79	7,35	279

Biroq kriogen usulda olingan xitozan 100°C haroratda va 35% konsentratsiyali ishqor yordamida dezatsetillanadi. Bu usulning ahamiyati shundaki, suyuq azot muhitida sintez qilingan xitozanning azot miqdori pilla g'umbagidan olingan xitozanga nisbatan 8,55 foizga yuqori bo'ladi.

Asalarilardan ajratib olingan xitozanning IQ spektrlari olindi va tahlil yo'li bilan o'rganildi (1-rasm). Tajriba natijasida IQ spektridagi amid guruhlarining yutilish chiziqlari kamayishi kutigan edi, amalda esa amid guruhi bo'lmagani ko'rindi, birlamchi aminning yutilish chiziqlarining ko'payishi ko'rindi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, xitinning IQ spektrida -N-H- bog'ining tebranishlari bilan bog'liq bo'lgan 3290 sm⁻¹ sohada xarakterli yutilish sohalari, shuningdek, 1371 sm⁻¹ da ham yutilish sohalari mavjud bo'lib, bu -CH₃ guruhining mavjudligidan darak beradi, 1579 sm⁻¹ sohasidagi yutilish C=O guurhiga xosdir.

Xitozanning IQ-spektri 3272 sm⁻¹ va 1377-1028 sm⁻¹ sohasida cho'qqilarni ko'rsatadi, bu NH₂- guruhi mavjudligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 1360-1000 sm⁻¹ yutilish sohasida molekula tarkibidagi C-N bog'lanishining tebranishlari hisobidan barcha turdagi aminlarning yutilish chiziqlari paydo bo'ladi.



A

B

1-rasm. Jonsiz asalarilardan olingan xitozanning IQ- furye spektri (A) va skanerlash mikrosurati (B)


Xitin va xitozan namunalarida CH_2 - va CH_3 - guruhlari deformatsiya tebranishining 1446 cm^{-1} va $-\text{OH}$ bog'ining deformatsiya tebranishining 1373 cm^{-1} (egilish) qismlarida yutilish chiziqlar ham qayd etilgan. Xitozan namunasida OH – bog'lanishining tebranishiga to'g'ri keladigan $1320\text{-}1387 \text{ cm}^{-1}$ sohada o'rta zichlikdagi keng chiziqli yutilish sohasi kuzatildi.

Xitinning (XT) kimyoviy modifikatsiyasi asosida suvda eruvchan hosilalarining keng qo'llanilishi natijasida karboksimetilxitozanni (KMXZ) sinteziga katta qiziqish uyg'otadi. Hozirgi vaqtda tajribaviy usullarning rivojlanishi asnosida suvda eruvchan, gidrofil, biologik faol, ekologik xavfsiz, zararsiz va boshqa maxsus xususiyatlari bilan ajralib turadigan preparatlarni olish imkonini beradi. Xitozan asosida deatsetillanishi va suvda eruvchanligi turlicha darajada bo'lgan karboksimetilxitozan (KMXZ) namunalarini keng miqyosda olish, shuningdek, ulardan foydalanish doirasini kengaytirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi o'n yillikda kimyo va kimyoviy texnologiya sohasida xitozan va karboksimetilxitozanga tadqiqot obyekti sifatida va uni amaliy qo'llashga yaroqliligi yuzasidan xorijlik olimlarning qiziqishi keskin ortdi. Kimyo sanoati rivojlangan mamlakatlarda, birinchi navbatda Xitoy, Yaponiya, AQSh va Rossiyada bu borada maqolalar soni va ushbu aminopolisaxaridlarni ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgani shundan dalolat beradi.

Biopolimerlar orasida KMXZ o'zining bir qator noyob xususiyatlari tufayli alohida ahamiyatga ega. U zaharli emasligi, allergik ta'siri pastligi va mikroblarga qarshi ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Xitozanning sorbsion va kompleks hosil qiluvchi xossalari bilan xarakterlanadigan funksional guruhlarning mavjudligi uning asosida sorbentlar va flokulyantlar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu munosabat bilan XZ va KMXZ xususiyatlaridan kompleks foydalanish dolzarb hisoblanadi. Biz tomonimizdan *Apis Mellifera* XZning karboksimetillanish

reaksiyasining quyidagi diagramma asosida bir qator tajribaviy bosqichlari ishlab chiqildi (2-rasm). Karboksimetilxitozan olishning ushbu ketma-ketligiga ko'ra, to'liq namlash uchun izopropil spirti muhitida xitozanni dispergirlash yo'li bilan dastlabki xitozanni oldindan tayyorlash amalga oshirildi.




2-rasm. O-karboksimetilxitozanni olish sxemasi

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, KMXZni olishda tadqiqotchilar dimetil sulfoksid (DMSO), izopropil spirti (IPS), shuningdek, suv-izopropanol aralashmasida xitozanni dispergirlaydilar. Dispersant sifatida izopropanolni tanlash xitozan va uning hosilalari molekulari bilan uning yaxshiroq mos kelishi bilan izohlanadi, shuning uchun bizning tadqiqotlarimiz doirasida IPSni $T=25^{\circ}\text{C}$ da XZ va IPS dastlabki nisbati (1:50)da qo'llanilishi ko'rsatilgan. Sharli tegirmonda oldindan maydalangan (o'rtacha zarracha hajmi 250 mkm) xitozan namunasini 30 daqiqa davomida intensiv aralashtirish orqali xitozanni karboksimetillash reaksiyasini yumshoq sharoitda olib borish maqsadida izopropil spirtida dispergirlandi.

Karboksimetilxitozan KMXZ xitozan strukturasi karboksimetil guruhini qo'shish orqali tayyorlandi. Ushbu modifikatsiya boshqa muhim xususiyatlarga ta'sir qilmasdan neytral va asosiy eritmalarda eruvchanligini oshiradi. KMXZ xitozanning gidroksil va amin guruhlarini karboksimetillash orqali olinadi. Amaldagi reaksiya haroratiga qarab turli tuzilishli KMXZ olish mumkin.


Olib borilgan tajribaviy natijalar asosida xitozanni karboksimetillash reaksiyasining quyidagi ehtimoliy reaksiya mexanizmi taklif qilindi:



Xona haroratida O-almashinuvi borishi, yuqori haroratlarda esa N-almashinuvi borishi kuzatildi.

Ilk bor Hyper Chem 8.0 C dasturida ochiq modellashtirish asosida *APIS Mellifera* KMXZning fazoviy va elektron tuzilishini o'rganish orqali xitozanning O-karboksimetillash reaksiya mexanizmi o'rganildi.

Xitozan, N- KMXZ va N,O- KMXZ ning atsetillangan amino guruhi O-KMXZ amino guruhidan farqli o'laroq zaryadga ega emas va gidrofobik o'zaro ta'sirga javob beradi (3-rasm).



3-rasm. AM1 kvant-kimyoviy hisoblash natijalari asosida Na-karboksimetilxitozan tuzilmalarining (O-(a), (N)-(b) hosilalari) elektrostatik salohiyati(potensiali)ni taqsimlashning uch o'lchovli grafigi.










Molekulalarning elektron zichligining taqsimlanish yuzasida zaryadsiz joylar kuzatiladi. Molekulaning bu qismlari gidrofob xususiyatga ega bo'lib, qutbsiz molekulalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, karboksimetillashdan so'ng olingan namunalar suvda eriydi, dastlabki xitozan esa suvda erimaydi. Ushbu holat KMXZ gidrofil karboksimetil guruhlar qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

AM1 ning vakuumda kvant-kimyoviy hisob-kitoblari natijasida O- KMXZ strukturadagi azot atomining zaryadi -0,325 eV, N,O- KMXZ uchun -0,291 eV va N- KMXZ uchun -0,287 eV ekanligi ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, O- KMXZ ning erkin amino guruhi manfiy zaryadlangan, qolgan ikkita strukturada atsetil guruhi elektron zichlikni o'ziga qarab siljitadi, bu azot atomining zaryadini belgilab beradi (2-jadval).

YUKMO tuzilmalarining piktogrammalarini tahlil qilib, funksional guruhlar aminokislotalarning azot atomlarida va karboksil guruhining kislorodida bo'linmagan elektron juftliklarini o'z ichiga olganligini ko'rishimiz mumkin, bu esa ichki va molekulararo vodorod bog'larining shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlash joizki, karboksimetillashdan so'ng olingan namunalarda suvda eriydi, dastlabki xitozan esa suvda erimaydi. Bu holat KMXZ gidrofil karboksimetil guruhlar qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

2-jadval.


Na-KMXZ modellarining yarim empirik usullar bilan hisoblangan YUKMO va QUKMO orbitallari

tuzilish	AM1	CNDO	MNDO
A			
B			
B			

Polimerlarning reologiyasi, ya'ni suyuq fazali tizimlarning oqim jarayonlari molekulyar zanjirlarning o'zaro tartiblanishi va o'zaro ta'siri asosida sodir bo'ladi. Polimerlarning reologiyasida elastiklik va qovushqoqlik xossalari ayniqsa ko'proq

seziladi. Qovushqoqlik ichki ishqalanishni ifodalovchi muhim parametr bo'lib, unda suyuqlik harakati paytida qatlamlar o'rtasida ishqalanish sodir bo'ladi. Suyuqlikning bunday jismoniy harakati surish oqimi deb ataladi. Polimerlarda, past molekulyar birikmalardan farqli o'laroq, ichki ishqalanish, ya'ni makromolekulyar zanjirlar hajmining deformatsion o'zgarishi tufayli qovushqoqlikning o'zgarishi kuzatiladi. Aksariyat tizimlarning qovushqoqligi oqim rejimiga bog'liq bo'ladi.

KMXZning molekulyar massasi xarakterli qovushqoqlik bo'yicha aniqlandi (4-rasm). Xitozan va karboksimetil xitozanning polimer zanjirlari tuzilishidagi farq ularning xarakterli qovushqoqligi qiymatlarida ham sezilmaydi. Grafikdan xarakterli $[\eta]$ qovushqoqlik 3,7 ekanligi aniqlandi.




**4-rasm. KMXZ ning xarakteristik qovushqoqligini topish
1-nisbiy qovushqoqlik, 2-shartli qovushqoqlik**

Karboksimetilxitozanning molekulyar og'irligini hisoblash uchun Mark-Kun-Houvinik tenglamasi $[\eta] \cdot KM \cdot \dots$ yordamida hisob-kitoblar amalga oshirildi. $M \cdot 192000$ $CH_3COOH + 2\% CH_3COONa$ ($K \approx 1,44 \cdot 10^{-4}$ dl/g, $\eta = 0,83$) bilan xitozan uchun 2% li eritmada, karboksimetilxitozan uchun $M \cdot 46700$, $H_2O + 2\% NaCl$ ($K \approx 7,92 \cdot 10^{-4}$ dl/g, $\eta = 1,00$)da. Molekulyar massalardagi bunday farq, xitozanning karboksimetillash jarayonida xitozan zanjirining molekulyar og'irliklarining sezilarli pasayishi bilan sodir bo'lishini ko'rsatadi.

KMXZ ning molekulyar tuzilishidagi farqlar infraqizil spektroskopiya yordamida o'rganildi (5-rasm).

Xitozanning IQ-spektrida $-NH_2$ guruhining mavjudligini ko'rsatuvchi $3275-3300 \text{ cm}^{-1}$ va $1390-1000 \text{ cm}^{-1}$ sohasidagi yutilish cho'qqilari kuzatiladi. Bunda C-N bog'lanishiga tegishli yutilish spektrlari barcha turdagi aminlar uchun $1360-1000 \text{ cm}^{-1}$ sohasida yutilish cho'qqilari namoyon bo'ladi. Xitin va xitozan namunalarda yutilish maksimumlari $-CH_2$ guruhining 1433 cm^{-1} da deformatsion tebranishi va -OH bog'lanishining 1373 cm^{-1} da o'ziga xos tebranishi (o'zgarishi) ham qayd etilgan. KMXZ IQ-spektrlarida gidroksil guruhlariga xos bo'lgan $3399,30-3167,25$

cm^{-1} oralig'larida yutilish maksimumlari kuzatiladi. 1552-1654 cm^{-1} sohasidagi yutilish esa C=O guruhlar uchun xarakterlidir.



5-rasm. O-karboksimetilxitozanning IQ- furiye spektri


Sintezlangan karboksimetilxitozan plyonka hosil qiluvchi va quyuqlashtiruvchi hamda bakteritsid xususiyatlariga ega va ular polielektrolit bo'lgan biologik parchalanadigan biopolimerlardir.

Dissertatsiyaning “**Xitozan va karboksimetilxitozan asosida aralash matolarni pardozlash texnologiyasini takomillashtirish**” nomli to‘rtinchi bobi to‘qimachilik sanoatiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu soha keyingi yillarda jadal rivojlanib, iqtisodiyotda asosiy o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. Xitozanni intensivator va quyuqlashtiruvchi vosita sifatida qo‘llash imkoniyati uning kuchsiz kislotali suvli muhitda eruvchanligi va yaxshi plyonka hosil qilish xususiyatlari, antibakterial xossa namoyon qilishi, qo‘shimcha reagentlarsiz tabiiy tolalarga birika olish qobiliyati bilan xarakterlanadi.

O‘tkazilgan tajribalar natijalariga ko‘ra, xitozanning tola bilan o‘zaro ta‘siri kimyoviy bog‘lanish tufayli sodir bo‘ladi, xitozan tolada plyonka hosil qiladi va bunda bo‘yoq yoki tola bilan o‘zaro ta‘sirlashib bog‘lanadi yoki bir vaqtning o‘zida har ikkala komponentga ta‘sirlashib bog‘lanadi.

Suvda eriydigan bo‘yoqlar va xitozan plyonkasi o‘rtasidagi jarayonlarni, shuningdek xitozan plyonkasining mato bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganish katta ahamiyatga ega, bu o‘z navbatida "mato - xitozan - bo‘yoq" tizimida vujudga keladigan bog‘lanishlar xususiyatini aniqlash imkonini beradi. Mazkur bog‘lanishlar to‘qimachilik materiallarini bo‘yashda rang sifatini ko‘p jihatdan belgilab beradi (6-rasm).

Faol va kislotali bo‘yoqlar xitozanning amorf plyonkasida mustahkamlanadi. Xitozan plyonkasi o‘z navbatida adgezion va molekulalararo bog‘lanishlar tufayli tolaga bog‘lanadi.



6-rasm. “Mato-xitozan-faol bo‘yoq” sistemasidagi ta’sirlashuvi

6-rasmda ko‘rsatilganidek, xitozanning aminoguruhi va bo‘yoqning faol markazi uglerodi o‘rtasida kovalent bog‘lanish hosil bo‘ladi, shuningdek, mato va xitozan o‘rtasida vodorod bog‘lanish ham yuzaga kelishi mumkin.


Adabiyotlardan ma’lumki, xitozan plyonka hosil qiluvchi xususiyatga ega. Shu sababli biz ipak matolarni bo’yash jarayonida xitozandan intensivikator sifatida foydalandik.

Dastlabki mato sirt qatlami bo’sh tuzilishga ega, xitozan bilan ishlov berilgan mato esa boshqa ko‘rinishga ega, ya’ni mato yuzasi tekislanadi, birikishlar hosil bo’ladi va tolalar yuzasida plyonka hosil bo’ladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, polimer singdirilgandan so’ng matoda plyonka hosil bo’ladi, bu matoni bo’yash jarayonida rang intensivligini oshiradi.

Bo’yash uchun dixlortriazin Reactive red X-3B bo’yog‘i va monoxlortriazin Reactive blue K bo’yoqlari tanlandi. Xitozan konsentratsiyasi 0 dan 1,5 g/l gacha o’zgartirildi. Sirka kislotasidagi (2%) xitozan eritmasi matoga bo’yashdan oldin surtildi va to’liq quriguncha 100-110°C haroratda quritildi.

Xitozanning matolar kapillyarligiga ta’sirini o‘rganish maqsadida xitozan eritmaları bilan ishlov berilgan va berilmagan ipak mato namunalari olindi. Xitozan konsentratsiyasi 0,5 dan 1,5 g/l gacha o’zgartirildi. Ipak matoga xitozan bilan ishlov berilganda, xitozan konsentratsiyasi ortishi bilan so‘rilgan suyuqlikning ko‘tarilish balandligi sezilarli darajada oshdi. Xitozan ipak tolasi yuzasida plyonka hosil bo‘lishi natijasida uning sirt qismi zichlashadi va ko‘tarilayotgan suyuqlik hajmi ortadi. Shuningdek, bo‘yalgan matolarning koloristik xossalari o‘rganildi (7-rasm).

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ipak matolarni kislotali bo‘yoqlar bilan bo’yashda xitozan konsentratsiyasi 0,5-1 g/l ga oshirilganda, ularning koloristik xususiyatlari, rang intensivligi va bo‘yoqning fiksatsiya darajasi ham yaxshilanadi. O‘tkazilgan tajribalar asosida xulosa qilish mumkinki, matolar polimerga shimdirilgandan so‘ng ularning yuzasida plyonka hosil bo‘ladi, bu esa bo’yash jarayonida koloristik xususiyatlarning yaxshilanishiga yordam beradi.



7-rasm. Xitozanning ipak matolarini kislotali bo'yoqlar bilan bo'yashdagi fiksatsiya darajasi va intensivligiga ta'siri

Xuddi shunday natijaga erishish uchun Uzxitanni (xitozan va KMS aralashmasini) bo'yoq vannasida 15-20 g/l konsentratsiyada ishlatib, bo'yoq konsentratsiyasini mato og'irligining 5%i o'rniga 2% ga kamaytirish orqali, mato massasining 3% yoki undan pastroq nisbatda foydalanish mumkin, ya'ni 100 kg bo'yalgan paxta-ipak matosiga nisbatan 2 kg bo'yoqni tejash imkonini beradi. Tabiiy ipakni faol bo'yoqlar bilan bo'yash yarim uzluksiz texnologiya bo'yicha ishqoriy usulda ikki bosqichda amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda, kuchsiz ishqoriy muhitda (pH 10,0-10,5) bo'yoq va ipak fibroini o'rtasida kovalent bog'lanish hosil bo'ladi, bu esa bo'yoqning yuvishga yuqori darajada chidamliligini ta'minlaydi. Keyinchalik, bo'yalgan ipak va paxta-ipak matolarning sifat ko'rsatkichlari hamda turli xil fizik-kimyoviy ta'sirlarga chidamliligining o'zaro bog'liqligi o'rganildi (3-jadval).

3-jadval

Faol bo'yovchi moddalar bilan bo'yalgan ipak matolarning sifat ko'rsatkichlari

Bo'yovchi eritmalar tarkibi	Rang intensivligi, K/S	Bo'yoqning fiksatsiya darajasi g/kg	Bo'yoqning sarflanish darajasi, %	Chidamliligi		
				sovunlanishga 40°C	terga	yoruqlikga
Ipak						
An'anaviy	8	16	53,3	4/4/5	4/4/5	4
taklif etilayotgan	11	25	83,3	5/5/5	5/5/5	5
Ipak-paxta 55:45						
An'anaviy	7	16,2	54	4/5/5	5/4/5	4
taklif etilayotgan	9	24,3	81	5/5/5	4/5/5	5

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xitozan konsentratsiyasi 0,5-1,5 g/l bo‘lganda sovun va terga chidamlilik ortadi, xitozan konsentratsiyasi 1,0 bo‘lganda esa nam va quruq ishqalanishga chidamlilik oshadi. Olingan natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, qo‘llanilgan xitozan ipak va paxta-ipak matolarini bo‘yash jarayonini tezlashtiradi hamda qimmatbaho bo‘yoq sarfini kamaytiradi. Taklif etilgan bo‘yash jarayoni texnologiyasi bo‘yicha bo‘yalgan matolarning sifat ko‘rsatkichlari, bo‘yoqning fiksatsiyasi 8-9 g/kg ga oshadi va bo‘yoqdan foydalanish darajasi 27-30% ga ko‘tariladi. Bu qimmatbaho bo‘yoqning sarflanishini kamaytiradi va bo‘yoq tejalishiga olib keladi.

Keng qamrovli olib borilgan o‘rganish natijalariga ko‘ra, ipak va paxta-ipak matolarini xitozan ishtirokida faol va kislotali bo‘yoqlar bilan bo‘yash fizik-mexanik va koloristik ko‘rsatkichlarni yuqori rang chidamliligi bilan yaxshilashini ko‘rish mumkin (4-jadval), bu esa to‘qimachilik mahsulotlarining yuqori ekspluatatsiya xususiyatlarini ta‘minlaydi deya xulosa qilish mumkin.


4-jadval

Ipak matolarini bo‘yashda xitozanning fiksatsiya darajasiga, bo‘yoqlarning singishiga va rang intensivligiga ta‘siri

Koloristik xususiyatlari	Intensifikatorsi z bo‘yoq, g/l	Bo‘yoq + Xitozan 1,0 g/l
Fiksatsiya darajasi g/kg	27	32,5
Bo‘yoqning sarflanish darajasi, %	75,77	87,85
Rang intensivligi, K/S	5,7	6,9
K/S Ortishi, %	30,5%	37,5

